

Davlat raxbarining davati

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish muhandislari instituti huzuridagi Qumqo'rg'on agrosanoat texnikumida 2021- yil 20-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda 2020-yil 25-dekabr kuni mamlakat yoshlari bilan videoselektor tarzida o'tkazilgan "O'zbekiston yoshlari" forumi yuzasidan yig'ilish bo'lib o'tdi. Unda Qumqo'rg'on agrosanoat texnikumi "Yoshlar yetakchisi" A.Mamatqulov O'zbekiston Respublikasi "Xalq demokratik partiyasi" Qumqo'rg'on tuman kengashi raisi M. Nomozov Qumqo'rg'on agrosanoat texnikumining 8 nafar o'qituvchisi va 87 nafar o'quvchi ishtirop etdi. Yig'ilishda M. Nomozov so'zga chiqib o'quvchilarga davlat rahbari tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalarga e'tibor qaratildi. Shuningdek, murojaatnomada mazmun-mohiyati taqdimot slaydlari va videoroliklar orqali yetkazildi.



TIQXMMI matbuot xizmati